



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

№ 6/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№6/2025

УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99	Bosh muharrir: Qo'qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas'ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.Y.Pulatov Mas'ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Bazarov Nashr uchun mas'ul: M.I.Sobirova
MUASSIS: Qo'qon davlat universiteti Qo'qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o'n ikki marta chop etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro'yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart. "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro'yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san'atshunoslik fan tarmoqlari bo'yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Sayt: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIYIY FANLAR I.I.Гибдуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) V.U.Xo'jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) M.T.Isog'aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) V.Yu.Isafov, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'ZB) A.J.Xusanov-fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent (O'ZB) O.A.Turdiyev, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) G'.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.No'monov, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) I.A.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) B.B.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) K.A.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'ZB) IJTIMOIIY FANLAR L.G.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) PEDAGOGIKA FANLAR P.F.Axтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) H.H.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB)

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 6-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

UDK: 37.013.3

ORCID ID 0000-0002-1195-1923

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA LINGVORANGLI OLAM MANZARASINI SHAKLLANTIRISH MILLIY ARTEFAKT SIFATIDA

Abdullazizova Rohatoy Usmonaliyevna

Farg‘ona davlat universitetimustaqil izlanuvchisi

abdullazizovarohatoy@gmail.com

+998 93 972 86 89

Anotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvorangli olam manzarasini shakllantirish milliy artefakt sifatida modelini takomillashtirish jarayoni tahlilga tortilgan. O‘quvchilarda tassavvur va tilning uyg‘unligi kamligi, bo‘layotgan hodisalarga so‘zlar bilan fikrini to‘liq ifoda etib berolmasligi, olamni lingvorangli manzarsini so‘zlar orqali tushunchalarning yo‘qligi yuqoridagi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan boshlang‘ich ta‘lim yoshidan boshlab o‘quvchilarda lisoniy shaxsni shakllantirish va boshqalar bilan muloqotga kirishishni o‘rgatish uchun bu davr asosiy bosqich ekanligini hisobga olinsa, shu davrdan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligini oshirishga, nutqiy tasavvurlarini oshirishga e‘tibor qaratish lozimligi haqida fikrlar berilgan. O‘qish savodxonligi va tabiiy fanlar faniga xos bo‘lgan o‘qitishning amaliy metodlarini tanlash va ularni ta‘lim jarayonida qo‘llashga qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiyalarning takomillashuvini talab etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda boshlang‘ich sinflarni o‘qitishga texnologik yondashuv va ta‘limni texnologiyalashtirish hamda uning o‘ziga xos bo‘lgan natijasini baholash bu jarayon uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida fikrlar bayon etilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida olamning lingvorangli manzarasini faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish modeli yaxlit, ochiq tashkil etilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida lingvorangli manzarasini faollashtirish metodikasini takomillashtirishni maqsadli rivojlantirish va belgilangan maqsadni natijaga mosligi haqida ilmiy qarashlar va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, lingvorangli manzarar, lug‘at zahirasi, zamonaviy texnologiyalar, tahlil, pog‘onaviylik xususiyati, modellashtrish, sintez, yaxlit tasavvur, tasniflash, taqqoslash, guruhlariga ajratish.

НАБЛЮДЕНИЕ ЗА КРАСОЧНЫМ МИРОВОЗЗРЕНИЕМ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ КАК НАЦИОНАЛЬНЫМ АРТЕФАКТOM

Аннотация. В данной статье анализируется процесс совершенствования модели формирования языковой картины мира у учащихся начальной школы как национального артефакта. Отсутствие гармонии воображения и языка у учащихся, неумение в полной мере выразить свои мысли по поводу происходящих событий словами, отсутствие понимания языковой картины мира через слова обуславливают вышеуказанные проблемы. Учитывая, что этот период является основным этапом формирования языковой личности учащихся и обучения их общению с окружающими, предлагается, начиная с этого периода, уделять внимание увеличению словарного запаса учащихся начальной школы и повышению их речевого воображения. Грамотность чтения и выбор практических методов обучения, характерных для естественных наук, и их применение в образовательном процессе требуют совершенствования компетенций, соответствующих требованиям. С этой точки зрения большое значение для этого процесса имеет технологический подход к обучению в начальных классах, технологизация образования и оценка его конкретных результатов. Модель совершенствования методической системы активизации языкового ландшафта мира в речи учащихся младших классов целостна, открыто организована, даны научные взгляды и выводы по целенаправленной разработке совершенствования методики активизации языкового ландшафта мира в речи учащихся младших классов и соответствия поставленной цели результату.

Ключевые слова: начальное образование, языковые ландшафты, словарный запас, современные технологии, анализ, иерархичность, моделирование, синтез, целостное видение, классификация, сравнение, группировка.

FORMING A LANGUAGE-COLORFUL WORLDVIEW IN PRIMARY GRADE STUDENTS AS A NATIONAL ARTEFFECT

Abstract. This article analyzes the process of improving the model of the formation of a linguistic worldview in primary school students as a national artifact. The lack of harmony of imagination and language in students, the inability to fully express their thoughts on the events taking place in words, the lack of understanding of the linguistic worldview through words cause the above problems. Considering that this period is the main stage for the formation of a linguistic personality in students and teaching them to communicate with others, starting from this period, it is suggested that attention should be paid to increasing the vocabulary of primary school students and increasing their speech imagination. Reading literacy and the selection of practical teaching methods specific to the natural sciences and their application in the educational process require the improvement of competencies that meet the requirements. From this perspective, the technological approach to teaching primary grades and the technologization of education and the assessment of its specific results are of great importance for this process.

The model for improving the methodological system of activating the linguistic landscape of the world in the speech of primary school students is holistic, openly organized, and scientific views and conclusions are given on the purposeful development of improving the methodology for activating the linguistic landscape of the world in the speech of primary school students and the correspondence of the set goal to the result.

Keywords: primary education, linguistic landscapes, vocabulary, modern technologies, analysis, hierarchical nature, modeling, synthesis, holistic vision, classification, comparison, grouping

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lingvorangli olam manzarasini shakllantirish milliy artefakt sifatida muhim pedagogik maqsadlardan biridir. Bu jarayon, bolalarning atrof-muhitni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda, shuningdek, ularning hissiyotlarini ifodalashda asqotuvchi rol o‘ynaydi. Ranglar, o‘z tabiatiga ko‘ra, namoyon bo‘lish va o‘rganish uchun rang-barang imkoniyatlarni taqdim etadi, shuning uchun ularni ta‘lim jarayonida qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Lingvorangli olam, o‘quvchilar uchun tadbirlarda ranglarning ahamiyatini anglash, o‘z ruhiy holatlarini ifodalash va ijtimoiy munosabatlarini o‘rganishda yordam beradi. Ranglar zamonaviy ta‘limda bolalarning ijodiy fikrlashlarini, hissiyotlarini va qaror qabul qilish qobiliyatlarini kuchaytiradi. O‘z navbatida, bunday o‘rganish jarayonlari bolalar uchun qiziqarli va samimiy atmosferani yaratadi. Milliy artefakt sifatida ranglar, milliy madaniyatimizning bir qismi sifatida, bolalar uchun qadrdon va yaqin tushunchalarda bo‘lishi zarur. Har bir rangning tarixi, uning madaniyati va e‘tiqodlar bilan bog‘liq ekanligini tushunish, bolalarda o‘z yurtlariga bo‘lgan sevgini kuchaytiradi. Shuningdek, bu jarayonda bolalar o‘z tarixlariga, an‘analariga va madaniyatlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishadi.

O‘quvchilarning ranglar bilan tanishuvi davomida o‘qituvchilar ranglar va ularning ma‘nolari haqida keng ma‘lumot berishlari lozim. Masalan, qizil rang kuch, motivatsiya va ehtirosni ifodalaydi, yashil rang esa tabiat va tinchlikni anglatadi. Ranglarning ma‘nolarini tushunib, bolalar o‘z ifodalarini yanada chuqurlashtirishi, fikrlarini aniqroq va boyroq ifodalashi mumkin. Bundan tashqari, o‘quv jarayoni davomida ranglar orqali ularning hissiyotlari va fikrlarini namoyish etish muvaffaqiyatli ijodiy va balansli ijtimoiy muhitni shakllantirishga yordam beradi. O‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari hamda o‘z fikrlarini ifodalashlari orqali, ular ijtimoiy tafakkurlarini kuchaytiradilar. Bu jarayon, bolalarning o‘z kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘quvchilarga ranglar haqidagi bilimlarni o‘rgatish bilan birga, ularning ranglar orqali o‘z fikrlarini ifodalashlariga yordam berishlari zarur. Turli didaktik o‘yinda ranglarni ishlatish, bolalarga o‘z his-tuyg‘ularini januzlata ifodalashda yordam beradi. O‘yin jarayonida, ranglar bolalarga juda qiziqarli bo‘ladi va ta‘lim jarayonini qayta o‘rganishlari uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Bolalar uchun lingvorangli tadvirlar o‘tkazishda, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash mumkin. Masalan, interaktiv doskalar, multimedia vositalari va dasturlar yordamida ranglarni ko‘rsatish orqali bu jarayonni

yanada qiziqarli va o‘rganish uchun qulay holga keltirish muhimdir. Bu faoliyatlar orqali bolalar ranglarning different ma’nolari va ahamiyatlarini ko‘rishlari mumkin.

Lekin bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, o‘qituvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur. Ta’limdagi yangi yondashuvlar, metodologiyalar va texnologiyalarni o‘rganish orqali o‘qituvchilar bolalar bilan ishlashda yanada ijodiy va innovatsion usullarni qo‘llashlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarga ranglar olamida yangi imkoniyatlarni ochadi. O‘quvchilar o‘z san’at asarlarini yaratishda ranglarni qo‘llashga o‘rgatilsalar, bu ularning ijodkorligini oshiradi. Rasmlarni, grafiklarni yaratish, ranglarni tanlash va ularga ma’no berish jarayonida bolalar o‘z ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Milliy artefakt sifatida rasmiy san’at va ranglarning birlashuvi, bolalarning ijodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida ranglarning tarixi va ularning xalqlar hayotidagi o‘rni haqida ma’lumot berish, bolalarning madaniyatlarni o‘rganishlariga ko‘mak beradi. Ranglar o‘quvchilarga milliy an’analarga, bayramlar va urf-odatlariga bo‘lgan munosabatlarini mustahkamlash imkoniyatini taqdim etish esa, ularning madaniy meroslarini saqlashda muhim rol oynaydi.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy va o‘rta maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ya’ni, uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’limtarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta’minlashda maktabdan tashqari ta’limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish, qolaversa, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish to‘g‘risida aytib o‘tilgan.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bilan uzluksiz ta’lim tizimining asosi yaratildi. Binobarin, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 26-moddasida o‘qitish jarayoniga ilg‘or, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng ko‘lamda tatbiq etish barcha turdagi ta’lim muassasalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta’kidlanadi. Dunyo bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarda yoshlarni ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor berilmoqda va ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Bu borada respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda va ularning mazmun – mohiyatini kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni intellektual salohiyatli,

ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat, innovatsion rivojlangan barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalalarini hal qilish tashkil etadi. Ularda erishilgan natijalar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkur qamrovini yuksaltirishda muhim didaktik asos bo'lib, ular orqali boshlang'ich ta'lim mazmuni zamonaviy talablar asosida shakllantirishga erishilmoqda. Shu bilan birga hozirda jamiyat taraqqiyoti darajasi zamonaviy ta'limda ilm-fan va texnika-texnologiyalarning ilg'or yutuqlaridan foydalanishni ham taqozo etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalalari yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz natijalari ta'lim jarayonida muayyan fanlarni o'qitishda ma'lum bir ta'lim yo'nalishini amalga oshirishda innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqib, ulardan ma'lum yo'nalishlarda samarali foydalanishga mo'ljallangan ijodiy faoliyati muhitini yaratib, boshlang'ich ta'limni optimal tashkil etish kerakligini ko'rsatmoqda. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risidagi farmonida ayni ko'rib chiqilayotgan muammo yechimini hal qilishga doir keng imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-iyundagi "Yoshlar-kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risidagi Farmonida "Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir", deb alohida belgilangan. Shunga ko'ra jamiyatimizdagi mehnat – haqiqiy ijod, quvonch manbai. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv mehnatiga ijodiy munosabat uyg'otib, mehnatning haqiqiy ijod, quvonch manbaiga aylanishiga ko'maklashishi kerak. Mental arifmetika umumta'lim maktabining boshlang'ich bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning majburiy sharti va tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli xil usullari qolaversa, darsdan tashqari faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Taniqli olimlardan N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko, A.V.Lunacharskiy, S.L.Rubinshteynlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda mehnat yoki texnologiya fani muhim o'rin egallaydi, deb hisoblaydilar. Mental arifmetikaning maqsadi-boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish bilan birgalikda shaxsini ham tarbiyalash demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z qo'llari bilan biror bir buyumni yasash, tayyorlash, o'quvchilarda ehtiyotkorlik hissi va xotirani rivojlantiradi, shu bilan bir qatorda, ma'suliliyatlik, qat'iyatlik va sabr-toqatni o'rgatadi. Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabda, ayniqsa, grafik insho yozishni o'rganishda yordam beribgina qolmay, keyinchalik ularning hayotida bu ko'nikmalar foydali hamda samarali bo'ladi. Texnologiya darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini tasavvurini, tafakkurini badiiy va san'atni shakllantirishga rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'quvchilarining miya yarim shar kasalliklari va nutqiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun juda muhim bo'lgan nozik vosita hisoblanadi. Ijodiy yoki mahorat darslari boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat tasavvurni rivojlantirishda, balki ko'plab amaliy ko'nikmalarni ham shakllanishida yordam beradi. Masalan, bir tugmani tikish,

rangli qog‘ozlardan biror bir buyum yasash, nonushta tayyorlash, oilangiz va do‘stlaringizga o‘z qo‘llaringiz bilan sovg‘alar tayyorlash, bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rivojlanishi maqsadga muvofiq. Va yana bir muhim jihati shundaki: biror bir buyum yasash, ijod qilish qobiliyati orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchining o‘ziga nisbatan yanada ishonch hosil qilishiga imkon beradi, uni o‘rab turgan tevarak-atrofidagi kattalar dunyosiga kattalarning ko‘magisiz kira olmaslik hissini yo‘q qiladi. Ammo o‘zo‘ziga ishonish, o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonch, boshlang‘ich sinf o‘quvchining chindan ham baxtli bo‘lishi uchun zarur sharoit yaratadi. Mehnat-turli xil materiallar orqali biror-bir buyum yasash bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga yo‘naltiradigan jarayon bo‘lib, unda o‘z hayoti davomida (o‘yinlar, mehnat, dam olish) bezash uchun foydali va estetik jihatdan ahamiyatli narsalar va mahsulotlar yaratadi. Ma’lumki, qiziqish o‘quvchilarning emotsional bezagi biror buyum, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo‘nalishidir. Shunga ko‘ra, psixologiyada qiziqishning ikki turi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida aniqlanadi: birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi esa bilvosita qiziqishdir. Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o‘quvchilarda ta’limga faol munosabat namoyon bo‘ladi. Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qiziqishlarini va qiziqish orqali ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda bir nechta omillar va samarali usullar mavjud bo‘lib ulardan bir nechta usullarni ko‘rib chiqamiz. “Yopiq kitob” usuli- bu muayyan fan bo‘yicha matn materialini qo‘llanish usullaridan biri bo‘lib, o‘quvchilardan matnda bor ma’lumotlarni eslab qolishni, lekin munozara paytida matnni qayta bayon etmaslikni talab qiladi. Bu usul ham boshqa usullar bilan birgalikda qo‘llanishni va o‘quvchilar o‘qishda faqat “qayta bayon etish” bilan chegaralanmasliklarini talab qiladi. Ushbu usul boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ijodiy faoliyati muhitida dars mashg‘ulotlarini olib borishdagi umumlashtiruvchi dars mashg‘ulotlarida (interfaol o‘quv mashg‘ulotlarida) juda ham qo‘l keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun eng qulay va oson ishlov beradigan material bu qog‘ozdir. Qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish qo‘llarning mushaklarining rivojlanishiga yordam beradi, o‘quvchilarning ko‘rish faoliyatini yaxshilaydi, uni yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun tayyorlaydi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning estetik rivojlanishiga, ranglarni biri birlariga uyg‘unlashtirishda ham o‘z aql-idroklariga tayanishadi. Ayniqsa, loy (plastilin) bilan ishlash darslari –(haykaltaroshlik)yoki loy plastilin yordamida biror bir buyum yasash. Haykaltaroshlik darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘ziga xos bo‘lmagan (bu va shunga o‘xshash ish uchun zarur. bo‘lgan) shaxsning ijodiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi, ammo umumiy ahamiyatga ega. Ushbu darslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning dunyoqarashlarini, tasavvurlarini kengaytiradi, axloqiy g‘oyalarni shakllantiradi va atrofdagi dunyoga ijodiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, loydan (plastilindan)tayyorlangan barcha mahsulotlar hayot bilan bog‘liq bo‘lgan xursandchiliklarni dekorativ va amaliy san’atga juda ta’sir ko‘rsatadi. Tikish va to‘qish, bichish bo‘yicha ishlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘z natijalari bilan jalb qiladi, shuningdek, o‘z qo‘llari bilan yasalgan buyumlardan olam-olam quvonch oladi. Har qanday to‘g‘ri tashkil

etilgan mehnat darslarida turli materiallarning sifati va imkoniyatlari haqida chuqur bilim berilishi ijobiy his-tuyg‘ularni mustahkamlashga yordam beradi, o‘quvchilarni mehnat qilishga undaydi va ularda mahoratning barcha cho‘qqilarini egallash istagini oshiradi. Hozirgi kunda olib borilgan tadqiqotlarda plastilindan o‘yinchoqlar yasash, rasm chizish, loyga ishlov berish, bichish, tikish va to‘qish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyati rivojlantirilishi isbotlandi. Qolaversa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni ijodkorligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Maktabning boshlang‘ich davrida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko‘rish tufayli boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘yinchoq yasashdan oldin o‘zi bevosita idrok etgan fanlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta - sekin tasavvur qila boshlaydi. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini kengaytirishda va rivojlantirishda sayohat o‘yinlari alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ular geografik, tarixiy, o‘lkashunoslik xarakteriga ega. Bunday o‘yinlar kitoblar, xaritalar va turli hujjatlar yordamida amalga oshiriladi. Ular o‘quvchilarda tasavvur qilish vaziyatlari yordamida o‘tkaziladi. Barcha harakatlar va kechinmalar o‘yindagi rollar yordamida aniqlanadi. Bu yerda o‘quvchilar geolog, iqtisodchi, zoolog, muhandis rollarida namoyon bo‘ladilar. O‘quvchilar kundaliklar, xatlar yozadilar, bilish xarakteriga ega bo‘lgan turli-tuman materiallarni to‘playdilar. Har bir shaxs muayyan ijodiy quvvatga ega. Mazkur ijodiy quvvatning asosini esa yangi narsalarni yaratish tashkil etadi. O‘quvchilarning tasavvurlari ijodiy hamda yaratuvchilik xarakteriga ega bo‘ladi. O‘quv yoki badiiy adabiyotlarni o‘qish jarayonida o‘quvchilar ushbu kitoblarda bayon qilingan voqelikni o‘z xotiralarida qayta jonlantirishlari talab etiladi. Ijodiy hayollar yaratuvchi hayollardan yangi namunalarni mustaqil yaratish bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchi faoliyatning o‘ziga xos natijalarida aks etadi. Inson shaxsining qimmatliligi uning ongida tasavvur qilishning qanday yo‘llari mavjudligiga bog‘liq. Agar ijodiy tasavvur muayyan faoliyatda namoyon bo‘lsa, bu o‘quvchi shaxsining yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Bilish xarakteridagi ijodiy, syujetli-rolli o‘yinlar shaxs taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Chunki u o‘quvchilarning hayolot olami kengayishiga asos bo‘ladi. Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan katta o‘zgarishlar maktab oldiga o‘quv faoliyatning barcha jabhalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatni rivojlantirish hamda jamiyatda shaxs sifatida shakllantirish bilan bog‘liq muammolar yechimini hal etish vazifasini qo‘ymoqda.⁴⁰ Bu muammolarning yechimini topishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirish asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Hozirgi kun pedagogi boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan ishlaganda bu qobiliyatlarning yanada samaraliroq shakllanishiga va rivojlanishiga yordam berishi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning aqliy va amaliy malakalarini faollashtirishni ta‘minlaydigan ta‘lim usullari va metodlarini qo‘llashga diqqatini qaratishi lozim. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchining shaxsiy xususiyati, imkoniyatiga qarab ijodiy faoliyatni, ishtiyoqini, qiziqishini

⁴⁰ Боймуратов, А. (2023). Информатика дarslarida ўқувчиларнинг когнитив фаолиятини индивидуallashtirish (академик лицей аниқ fanlar йўналиши мисолида). Информатика и инженерные технологии, 1(2), 346-349.

samarali rivojlantirish uchun avvalo boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘z ijodiy qobiliyatlarini mustaqil ravishda namoyish etish imkoniga ega bo‘lgan shartsharoitlarni, dars mashg‘ulotlarida o‘ziga bo‘lgan ishonchini, berilayotgan ijodiy vazifalarni bajarishda mustaqil qaror qabul qilishini ta‘minlash va ijodiy muhitni yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta‘lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to‘plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko‘nikma va malakalar hamda e‘tiqodlar shakllanadi. Ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya‘ni unda ikki tomon o‘qituvchi va o‘quvchi faol ishtirok etadi. O‘qituvchi aniq maqsadni ko‘zlab reja va dastur asosida bilim, malaka va ko‘nikmalarni singdiradi, o‘quvchi esa uni faol o‘zlashtirib oladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan ona tili fani o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta‘lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta‘limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta‘limda ona tili darslariga o‘quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e‘tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang‘ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so‘zdan bezib qolmasliklari lozim. Ona tili –nutq, o‘qish va yozish sohasidagi ko‘nikma va malakalar o‘quvchilar o‘quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o‘qish ko‘nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, o‘z ona tilini o‘rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni o‘qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o‘rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda ham alohida rol o‘ynaydi.⁴¹

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o‘qigan bola o‘zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang‘ich sinfda asosiy o‘rinni egallar ekan, har bir o‘quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur. Boshlang‘ich sinflarda ona tili mashg‘ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1. O‘qish, yozuv, grammatik materialni o‘rganish, kuzatishlar hamda o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog‘liq holda ularning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish. 2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o‘rgatish, ya‘ni ularni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish, bu kamchiliklarni malakaga aylantirish. 3. Adabiy til normalarini, ya‘ni imloviy va punktuatsiyasi savodli yozuvni, orfoepik to‘g‘ri talaffuzni o‘rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash. 4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o‘rganish, tildan ilmiy tushunchalarni shakllantirish. 5. O‘quvchilarni o‘qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda adabiy asarni idrok etish ko‘nikmasini hosil qilish. Bu vazifalarning hammasini boshlang‘ich sinflarda ona tili fani hal etadi va boshlang‘ich sinflar ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo‘lib, unda o‘quv fanining mazmuni va hajmini shuningdek, shu fandan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasiga qo‘yilgan asosiy talablarni belgilaydigan bo‘ladi. Dastur talablarini o‘qituvchi va o‘quvchilar bajarishlari shart, uni kengaytirish va qisqartirishga yo‘l

⁴¹ Markman, E. M. (2021). Categorization and naming in children: Problems of induction. mit Press.

qo‘yilmaydi. Boshlang‘ich sinflarning ona tili dasturi ikki qismdan iborat: 1. Uqtirish xati. 2. Asosiy qismi. Uqtirish xatida ona tili fanining tutgan o‘rni, uning vazifalari ko‘rsatilib, metodik yo‘l-yo‘riqlar beriladi. Dasturning asosiy qismi 3 bo‘lim, u har bir sinfda o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar hajmi ko‘rsatilgan. Dasturning bo‘limlari: “Savod o‘rgatish va nutq o‘stirish”, “O‘qish va nutq o‘stirish”, “Grammatika, imlo va nutq o‘stirish” dan iborat. Har bir bo‘lim bir necha qismlardan iborat. Masalan, “O‘qish va nutq o‘stirish” bo‘limi, “Sinfda o‘qish” va “Sinfdan tashqari o‘qish”ni; sinfda o‘qish o‘z navbatida “O‘qish mashg‘ulotlarini”, “Matn ustida ishlash” qismlarini o‘z ichiga oladi va h.k. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o‘qituvchi bilan o‘quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo‘nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ona tilini o‘qitishda o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta‘lim tizimining takomillashuvi bilan bog‘liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o‘qitish metodlari sifatida tushuntirish-bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta‘limi darslarini tashkil etishda ko‘proq qo‘llanilib kelindi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni alohida ta‘kidlash lozimki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida lingvorangli olam manzarasini faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish modeli yaxlit, ochiq tashkil etilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida lingvorangli olam manzarasini faollashtirish metodikasini takomillashtirishni maqsadli rivojlantirish va belgilangan maqsadni natijaga mosligini aniqlash imkonini beradi. Jarayonning amaliyotga tatbiqi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqida ma‘nodosh so‘zlarni faollashtirish metodikasini takomillashtirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гречко В. А. Типология синонимических единиц современного русского литературного языка: дис. ... д-ра филол. наук. – Горький: 1987. – 387 с.
2. Гречко В. Синонимы и их типы. ... дис. автореф – Ленинград: 1980. – 55 с.
3. Mirxanova M. O‘zbek tilining sinonimlar o‘quv izohli lug‘atini tuzishning lingvistik asoslari: diss. – Buxoro: 2022. – B 264.
4. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: филол. фанлари номз. ... дис. автореф. – Тошкент: 1996. – В 64.
5. Охунжонова О. Таълим босқичларида синонимлар мавзусини ўқитиш методикаси: пед. фан. номз. дис. – Тошкент: 2009. – В 137.

MUNDARIJA	
PEDAGOGIKA	
KOLLABORATIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SARF (MORFOLOGIYA) ILMINI O‘QITISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI (ISLOM BILIM YURTI MISOLIDA) <i>Eschanov Usman Qutlimuratovich</i>	4
VERTUAL TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Yo‘ldosheva Tursunoy Azimboy qizi</i>	11
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ ФРАЗОВЫМ ГЛАГОЛАМ В ЛИНГВОДИДАКТИКЕ <i>Ереженева Жамиля Уайисовна</i>	20
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH <i>Kaxxarova Ozoda Abdimo‘minovna, Elmurodova SitoraYunus qizi</i>	26
INGLIZ TILI ORQALI O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRUVCHI DIDAKTIK VOSITALAR <i>Yoqubova Maftuna Shoyim qizi</i>	34
НАХВ ИЛИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА БАСРА ВА КУФА МАКТАБИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ <i>Мамаражабов Мирқосим Рамазон ўғли</i>	41
KOGNITIV UNIVERSAL TA‘LIM FAOLIYATI TUSHUNCHASI VA UNING TEXNOLOGIK TA‘LIMDAGI O‘RNI <i>Erkinova Sitora Botirjon qizi</i>	49
NEMIS TILI YO‘NALISHI B2 DARAJADAGI TALABALARNING REFLEKSIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA TOPSHIRIQ VA MASHQLAR TIZIMI <i>Qodirov Akmal Hojimatovich</i>	55
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA INFORMATIKA O‘QITUVCHISIDA O‘QUV MODELLARINI ISHLAB CHIQUISH VA QO‘LLASH KO‘NIKMALARI <i>Юсупова Гульчехра Юлдашовна</i>	61
SERVIS TA‘LIMIDA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA METODIK TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI <i>Barataliyeva Nasiba Mahmadaaminovna</i>	70
TEACHING WITH GAMES: ANALYZING TECHNIQUES OF LEARNING OR PLAYING <i>Raximova Muslima Dilshodjon qizi</i>	76
РАЗВИТИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА <i>Ахмедова Нулуфар Мамасидиковна</i>	79
METHODOLOGICAL FEATURES OF USING GYMNASTICS IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION OF STUDENTS <i>Karimov Duysenbay Djienbaevitch</i>	86
KAR VA ZAIF ESHITUVCHI YUQORI SINF O‘QUVCHILARINI AXBOROT BILAN ISHLASHGA O‘RGATISHNING SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TEXNOLOGIYALARI <i>Tursunov Hojiakbar Hamidullo o‘g‘li</i>	90
UMUMTA‘LIM VA UMUMKASBIY FANLARNING MAVZULARARO ALOQADORLIK ASOSIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI QO‘LLASH METODIKASI <i>Baratov Jo‘raqo‘zi Shukurjon o‘g‘li</i>	97

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ЛЕЧЕБНОЕ ДЕЛО <i>Рахматуллаева Гулбахор Иброхимжон кизи</i>	999
ПРИМЕНЕНИЕ ХИМИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ЧЕРЕЗ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОДХОД <i>Турдиева Наргиза Мардоновна</i>	1006
MILLIY VA JAHON PEDAGOGIKASIDA USTOZ-SHOGIRD AN‘ANALARI <i>O‘rinova Nilufar Muhammadovna</i>	1013
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA CHIZMACHILIK BO‘YICHA TEST VA TOPSHIRIQLAR TUZISH USULLARI <i>Mamurova Dilfuza Islomovna</i>	1023
INKYUZIV TA'LIMNING KELAJAGI: UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA LOGOPED VA DEFEKTOLOG XIZMATLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI <i>Ataxodjayeva E'zoza Hamidullayevna</i>	1031
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA LINGVORANGLI OLAM MANZARASINI SHAKLLANTIRISH MILLIY ARTEFAKT SIFATIDA <i>Abdullazizova Rohatoy Usmonaliyevna</i>	1037